

# MUHANDISLIK

## & IQTISODIYOT

### №4 (2)

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,  
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

2026  
APREL



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 - Texnika fanlari

08.00.00 - Iqtisodiyot fanlar



Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB<sup>™</sup>  
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

Academic  
Resource  
Index  
ResearchBib

ISSN INTERNATIONAL  
STANDARD  
SERIAL  
NUMBER  
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

OpenAIRE

ROAD

INDEX COPERNICUS  
INTERNATIONAL

BASE

Crossref

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ  
БИБЛИОТЕКА  
LIBRARY.RU



ISSN: 3060-463X

РЭУ.РФ  
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ  
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА  
ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛИАЛ



# **muhandislik** **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,  
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr, 2026-yil, aprel.

## **Bosh muharrir:**

**Zokirova Nodira Kalandarovna**, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

## **Bosh muharrir o'rinbosari:**

**Shakarov Zafar G'afrovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

## **Tahrir hay'ati:**

**Abduraxmanov Kalendar Xodjayevich**, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Sharipov Kongratbay Avezimbetovich**, texnika fanlari doktori, professor

**Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Shaumarov Said Sanatovich**, texnika fanlari doktori, professor

**Turayev Bahodir Xatamovich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Nasimov Dilmurod Abdulloyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Allayeva Gulchexra Jalgasovna**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Arabov Nurali Uralovich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Xamrayeva Sayyora Nasimovna**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Bobonazarova Jamila Xolmurodovna**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Irmatova Aziza Baxromovna**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Bo'taboyev Muhammadjon To'ychiyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

**Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

**Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

**Amanov Otabek Amankulovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li**, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Qurbonov Samandar Pulatovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Tabayev Azamat Zaripbayevich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Sxay Lana Aleksandrovna**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**Ismoilova Gulnora Fayzullayevna**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

**Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

**Kasimova Nargiza Sabitdjanovna**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

**Kalanova Moxigul Baxritdinovna**, dotsent

**Ashurzoda Luiza Muxtarovna**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

**Bauyetdinov Majit Janizaqovich**, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

**Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li**, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Sultonov Shavkatjon Abdullayevich**, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

**Jo'raeva Malohat Muhammadovna**, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

**Yusupov Maxamadamin Abduxamidovich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor

**Kalonova Moxigul Baxritdinovna**, iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent

**Mirzayev Kulmamat Djanzakovich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor.

**Karimova Nilufar Sadirdin qizi**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Norboyev Odil Abrayevich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**Nasimov Dilmurod Abdulloyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

**Mirzayev Kulmamat Djanzakovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

**Karimova Nilufar Sadirdin qizi**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Pardaev Umidjon Uralovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

**Xolmirzayev Ulug'bek Abdulazizovich**, Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc)

# muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,  
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi  
05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari  
05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash  
05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari  
05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti  
05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi  
05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari  
05.01.07 – Matematik modellashtirish  
05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt  
05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik  
05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari  
05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti  
05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash  
05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi  
05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari  
05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari  
05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi  
05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish  
05.08.06 – "G'ildirakli va gusenisali mashinalar va ularni ishlatish" (texnika fanlari)  
05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar  
05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari  
10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik  
10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti  
08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi  
08.00.02 – Makroiqtisodiyot  
08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti  
08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti  
08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti  
08.00.06 – Ekonometrika va statistika  
08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit  
08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit  
08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti  
08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti  
08.00.11 – Marketing  
08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot  
08.00.13 – Menejment  
08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari  
08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti  
08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya  
08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK  
Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

**Muassis:** "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

**Hamkorlarimiz:**

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



# MUNDARIJA

BYUDJET SUBYEKTLARI ISHTIROKINI QISQARTIRISH ASOSIDA KREDIT RISKINI BOSHQARISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH.....	16
<b>PhD. Mahmudov Rahimjon Hamid o'g'li</b>	
MINTAQA IQTISODIYOTI TARMOQLARINI KLASTERLASHTIRISH SALOHIYATINI RIVOJLANTIRISHNI TAKOMILLASHTIRISHNING EMPIRIK MODEL: STATISTIK VA EKONOMETRIK TAHLIL.....	25
<b>Ollokulova Feruza Mansurovna, Abdurahmonov Abdulaziz Maxmudovich</b>	
XO'JALIK YURITUVCHI SUBYEKTLARDA PUL OQIMLARI AUDITINI TAKOMILLASHTIRISHNING ZAMONAVIY MEXANIZMLARI.....	30
<b>Atamurodov Saidmurad Yaxyoyevich, Sindarova Aziza Musurmon qizi</b>	
TIJORAT BANKLARIDA KREDIT RISKLARINI BOSHQARISHNI RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR VA SUN'IY INTELLEKT ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH.....	42
<b>Xasanov Sardor Xazratkulovich</b>	
IQTISODIY O'SISH SIFATI VA UNI KO'RSATKICHLARINING KONSEPTUAL ASOSLARI.....	50
<b>Axmedov Xasanjon Muxamadovich</b>	
IQTISODIY O'SISH SIFATI VA UNI KO'RSATKICHLARINING KONSEPTUAL ASOSLARI.....	55
<b>Axmedov Xasanjon Muxamadovich</b>	
ENERGIYA SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING KORXONALAR RENTABELLIGIGA TA'SIRI.....	60
<b>Hayitov Jamshid Xolboyevich</b>	
KREDITLASH MEXANIZMINING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI VA UNING TARIXIY RIVOJLANISH BOSQICHLARI.....	65
<b>Ortiqov Husan Usmonaliyevich</b>	
DAVLAT SEKTORIDA ICHKI AUDIT FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISH.....	70
<b>Xamidova Zarifa Urol qizi</b>	
ISTE'MOL NARXLARI INDEKSINI MODELLASHTIRISH VA PROGNOZLASHNI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI.....	74
<b>Ismailova Shaxnoza Uktamovna</b>	
XIZMATLAR SEKTORI RIVOJLANISHINING KAMBAG'ALLIKKA TA'SIRINI BAHOLASH METODOLOGIYASI VA KO'RSATKICHLAR TIZIMI.....	77
<b>Dawletmuratov Adilbay Mirzaboyevich</b>	
BIZNES JARAYONLARINI MONITORING QILISH TIZIMINING HOZIRGI HOLATI TAHLILI.....	84
<b>Dadajonova Madina Ravshan qizi</b>	
ISTE'MOL NARXLARI INDEKSINI MODELLASHTIRISH VA PROGNOZLASHNI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI.....	89
<b>Ismailova Shaxnoza Uktamovna</b>	
MINTAQA IQTISODIYOTI TARMOQLARINI KLASTERLASHTIRISH SALOHIYATINI RIVOJLANTIRISHNI TAKOMILLASHTIRISHNING EMPIRIK MODEL: STATISTIK VA EKONOMETRIK TAHLIL.....	94
<b>Ollokulova Feruza Mansurovna, Abdurahmonov Abdulaziz</b>	
ENERGIYA SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING KORXONALAR RENTABELLIGIGA TA'SIRI.....	100
<b>Hayitov Jamshid Xolboyevich</b>	
IMPROVING THE EFFICIENCY OF BANKS' GREEN FINANCING IN UZBEKISTAN AND KAZAKHSTAN.....	105
<b>Maxmudov Rahimjon</b>	
MAHALLIY BUDJETLAR MUSTAQILLIGINI TAKOMILLASHTIRISH VA YANADA OSHIRISH.....	109
<b>Abduraxmonova Gulmira</b>	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA MOLIVAVIY HISOBOTLARNI SHAKLLANTIRISH: MUAMMOLAR VA YECHIMLAR.....	114
<b>Teshabayev Dilmurod Boxodir o'g'li</b>	



FARG 'ONA VILOYATINING INNOVATSION RIVOJLANISHI.....	120
<b>Tuychieva Odina Nabiyeвна</b>	
INDICATORS OF INNOVATIVE DEVELOPMENT OF THE "GREEN" ECONOMY.....	131
<b>Mirzaev Kulmamat Djanzakovich</b>	
KREDITLASH MEXANIZMINING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI VA UNING TARIXIY RIVOJLANISH BOSQICH LARI.....	140
<b>Ortiqov Husan Usmonaliyevich</b>	
KORPORATIV BOSHQARUVNING XALQARO TAJRIBASI VA UNING QIYOSIY TAHLILI.....	144
<b>Shakirova Gulbaxor Sharipdjanovna</b>	
TIJORAT BANKLARIDA KREDIT RISKLARINI BOSHQARISHNI RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR VA SUN'IY INTELLEKT ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH.....	149
<b>Xasanov Sardor Xazratkulovich</b>	
IQTISODIY XAVFSIZLIKNING INSTITUSIONAL ASOSLARINI TAKOMILLASHTIRISHNING XORIJ DAVLATLAR TAJRIBASI.....	156
<b>Odinayev Ravzatullo Asatulloevich</b>	
KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING MOLIVAVIY XAVFSIZLIGINI TA'MINLASH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	161
<b>Karimov Alibek Valievich</b>	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA FRANCHAYZING TIZIMINI RIVOJLANTIRISHDA PLATFORMA MODELLARI VA ULARNING SAMARADORLIGINI BAHOLASH.....	167
<b>Xodjayeв Anvar Rasulovich, Nasimov Dilshodbek Hotam o'g'li</b>	
"O'ZBEKISTON GTL" MAHSULOTLARINING FIZIK-KIMYOVIY XOSSALARI VA ULARNI KOMPOUDIRLASH ASOSIDA EKOLOGIK TOZA YOQILG'ILAR OLIISH ISTIQBOLLARI.....	173
<b>Ro'ziyev Aliakbar, Hayitov Ruslan, Mavlonov Shohrux</b>	
HUDUDIY MEHNAT BANDLIGINI TA'MINLASHDA AVTOSERVIS KORXONALARINING ROLI.....	179
<b>Marqayev Xurshid Aliqulovich</b>	
ASOSIY VOSITALAR AUDITINI TAKOMILLASHTIRISH.....	183
<b>Zaripova Sayohat Zafarovna</b>	
XIZMATLAR SOHASINI BOSHQARISHDAGI MUAMMOLAR VA YECHIMLAR: AGROTURIZM VA RAQAMLI XIZMATLAR ASOSIDA TAHLIL (ANDIJON VILOYATI MISOLIDA).....	188
<b>Oktamjonova Gulira'no Ikromjon qizi</b>	
BUXORO VILOYATI UY XO'JALIKLARI HAYOT SIFATI VA IJTIMOIIY-IQTISODIY AHVOLI: SO'ROVNOMA NATIJALARI TAHLILI.....	192
<b>Nizomov Asliddin, Musulmonova Shahlo, Izzatullayeva Ma'mura</b>	
DIRECTIONS FOR TOURISM DEVELOPMENT IN UZBEKISTAN BASED ON DIGITAL TECHNOLOGIES..	199
<b>Mirzaev Kulmamat Djanzakovich</b>	
QORA METALLURGIYA SANOATI VA ULARNING ISHLATILISHI.....	203
<b>Sarimsakov Alisher Ubaydullaevich</b>	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA AHOLI BANDLIGINING IQTISODIY-STATISTIK TAHLILI.....	209
<b>Yusupov Farhod Adamboyevich</b>	
TASVIRLARDAN YO'L BELGILARINI TANIB OLIISH ALGORITMLARI VA DASTURIY VOSITASINI ISHLAB CHIQISH.....	214
<b>Toyirov Akbar Xasanovich, Yuldoshov Abdurahmon Baxtiyorovich</b>	
OLIIY TA'LIMNI MOLIVALASHTIRISHNING ILG'OR XORIJIY TAJRIBASI: SINGAPUR MISOLIDA.....	218
<b>Kurbanov Baxodir Negmatullayevich</b>	



MA'LUMOTLARGA ASOSLANGAN TURIZM BOSHQARUVI: O'ZBEKISTONDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYA JARAYONLARI.....	222
<b>Ashurova Shaxnoza Almasovna</b>	
DAVLAT XARIDLARI BO'YICHA BYUDJET MABLAG'LARIDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI ICHKI AUDITNING ANALITIK KO'RSATKICHLARI ASOSIDA BAHOLASH.....	226
<b>Meliboyev Askar Eshmuratovich</b>	
ГЛИНИСТЫЕ СЛАНЦЫ ЦЕНТРАЛЬНОГО И ЮЖНОГО УЗБЕКИСТАНА КАК СЫРЬЕВАЯ СМЕСЬ ДЛЯ ПРОИЗВОДСТВА ПОРТЛАНДЦЕМЕНТА.....	231
<b>Карабаев А.М., Абдуллаева Д.Ф., Абдуллаев У.Х. Андакулова Н.Н.</b>	
ЦИФРОВАЯ ТРАНСФОРМАЦИЯ СИСТЕМЫ МЕНЕДЖМЕНТА КАЧЕСТВА НА ПРОМЫШЛЕННОМ ПРЕДПРИЯТИИ.....	237
<b>Садиков Жахонгир Носирджанович, Даулетмуратова Дилбар Калмуқанмед кизи</b>	
РАЗРАБОТКА МЕХАТРОННОГО МОДУЛЯ ДЛЯ ВЫРАВНИВАНИЯ ПОВЕРХНОСТИ МЕТАЛЛА ПОСЛЕ ЗАЛИВКИ.....	243
<b>Мирджуроев Сарвар Алишер угли</b>	
MAHALLIY BUDJET DAROMADLARINI SHAKLLANTIRISHDA YASHIRIN IQTISODIYOTNING TA'SIRI ..	246
<b>Isoqov Zafarjon Zokirjonovich</b>	
AGROKLASTERLAR SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING EKONOMETRIK MODELLARI .....	250
<b>O'rinboev Ulug'bek Otabekovich</b>	
ИССЛЕДОВАНИЕ ПОРИСТОЙ СТРУКТУРЫ И ВЛАГОПОГЛОЩАЮЩИХ СВОЙСТВ КОМПОЗИТНОГО ВЯЖУЩЕГО .....	259
<b>Тургунбаев Уринбек, Шарипова Дилафруз, Худойбердиев Жамшид</b>	
ИССЛЕДОВАНИЕ НАПРЯЖЕННО-ДЕФОРМИРОВАННОГО СОСТОЯНИЯ ЯЧЕЙКИ СВЕТОПРОЗРАЧНОГО ОГРАЖДЕНИЯ ПРИ ВОЗДЕЙСТВИИ ЛОКАЛЬНОЙ СЕЙСМИЧЕСКОЙ НАГРУЗКИ.....	265
<b>Давронов Олимбек, Туляганов Азиз</b>	
PAHTA-TO'QIMACHILIK KLASTERLARNING EKSPORT SALOHİYATINI OSHIRISH YO'NALISHLARI .....	271
<b>Mamasoliyev G'ayratbek Maxamadyusupovich</b>	
RAQAMLI IQTISODIYOTNING TURIZMDA MOHIYATI VA AHAMIYATI.....	276
<b>Abdullayeva Zulfiya Izzatovna</b>	
MINTAQAVIY SANOAT KORXONALARINING BIZNES JARAYONLARINI TAHLIL QILISH VA BAHOLASHNING ZAMONAVIY USULLARI (BPM, LEAN VA SIX SIGMA YONDASHUVLARI MISOLIDA) ..	279
<b>Azimova Maxfuza Rashidovna</b>	
QURILISH SANOATI KORXONALARINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI VA ULARNI EKOLOGIK BOSHQARISH TAMOIYILLARI .....	284
<b>Xolov Xamza Tojiddinovich</b>	
O'ZBEKISTONDA AHOLINI QISHLOQ XO'JALIGI MAHSULOTLARI BILAN TA'MINLASHNING IQTISODIY MEKANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH: EKONOMETRIK TAHLIL VA PROGNOZLASH .....	292
<b>Matjonov Bekjon Ravshonbekovich, Ibragimova Nodira Kadamovna</b>	



# O'ZBEKISTONDA AHOLINI QISHLOQ XO'JALIGI MAHSULOTLARI BILAN TA'MINLASHNING IQTISODIY MEKANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH: EKONOMETRIK TAHLIL VA PROGNOZLASH

**Matjonov Bekjon Ravshonbekovich**

Urganch RANCH texnologiya universiteti  
"Iqtisodiyot" kafedrasida dotsenti v.b., PhD  
ORCID: 0000-0003-2450-1443

**Ibragimova Nodira Kadamovna**

Urganch RANCH texnologiya universiteti  
2-bosqich magistranti

**Annotatsiya:** Mazkur tadqiqotda O'zbekistonda oziq-ovqat xavfsizligi korrelyatsion va regressiya usullari asosida ekonometrik tahlil qilindi. Aholi jon boshiga oziq-ovqat ta'minotiga ta'sir etuvchi asosiy omillarni aniqlash uchun ko'p omilli model ishlab chiqildi. Natijalar modelning yuqori aniqlikka ega ekanligini ( $R^2 = 0,996$ ) ko'rsatib, ishlab chiqarish hajmi, bandlik va chorvachilik mahsulotlari bilan kuchli bog'liqlikni tasdiqladi. Trend tahlili asosida 2030-yilgacha ijobiy o'sish prognoz qilindi. Tadqiqot natijalari oziq-ovqat xavfsizligi siyosatini takomillashtirishda muhim ahamiyatga ega.

**Kalit so'zlar:** oziq-ovqat xavfsizligi, ekonometrik tahlil, regressiya modeli, prognozlash, qishloq xo'jaligi, investitsiya.

**Аннотация:** В данном исследовании продовольственная безопасность в Узбекистане проанализирована с использованием корреляционных и регрессионных методов. Для выявления факторов, влияющих на обеспеченность продовольствием на душу населения, разработана многофакторная модель. Результаты показали высокую объясняющую способность модели ( $R^2 = 0,996$ ) и подтвердили наличие тесной связи с объемом производства, уровнем занятости и продукцией животноводства. На основе трендового анализа до 2030 года прогнозируется устойчивый рост. Полученные результаты имеют важное значение для совершенствования государственной политики в области продовольственной безопасности.

**Ключевые слова:** продовольственная безопасность, эконометрика, регрессионная модель, прогнозирование, сельское хозяйство, инвестиции.

**Abstract:** This study analyzes food security in Uzbekistan using correlation and regression methods. A multifactor model was developed to identify key factors affecting per capita food supply. The results demonstrate a high explanatory power of the model ( $R^2 = 0.996$ ) and confirm strong relationships with production volume, employment, and livestock output. Based on trend analysis, a steady increase is projected up to 2030. The findings provide important implications for improving national food security policy.

**Keywords:** food security, econometric analysis, regression model, forecasting, agriculture, investment.

## KIRISH

Hozirgi globallashuv sharoitida oziq-ovqat xavfsizligi masalasi dunyo miqyosida eng dolzarb ijtimoiy-iqtisodiy muammolardan biri sifatida e'tirof etilmoqda. Aholi sonining jadal o'sishi, iqlim o'zgarishi, resurslarning cheklanganligi hamda global iqtisodiy inqirozlarning kuchayib borishi oziq-ovqat bilan barqaror ta'minlash tizimini yanada takomillashtirish zaruratini yuzaga keltirmoqda. Shu jihatdan oziq-ovqat xavfsizligi nafaqat agrar sektor rivoji, balki milliy iqtisodiyot barqarorligi va aholining turmush darajasini belgilovchi strategik omil sifatida namoyon bo'lmoqda.

O'zbekiston Respublikasida ham oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. So'nggi yillarda qishloq xo'jaligini modernizatsiya qilish, ishlab chiqarishni



diversifikatsiyalash, eksport salohiyatini oshirish hamda ichki bozorda barqaror narx muvozanatini ta'minlashga qaratilgan keng ko'lamlı islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, ekin maydonlarini optimallashtirish, paxta va g'alla yetishtirish hajmini qisqartirib, o'rniga oziq-ovqat mahsulotlari yetishtirishni kengaytirish, agrotexnologiyalarni joriy etish va qayta ishlash sanoatini rivojlantirish bo'yicha qator chora-tadbirlar olib borilmoqda.

Shu bilan birga, oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash jarayonini samarali boshqarish uchun iqtisodiy jarayonlarni chuqur tahlil qilish, ularning o'zaro bog'liqligini aniqlash va istiqboldagi rivojlanish yo'nalishlarini ilmiy asosda prognozlash muhim ahamiyat kasb etadi. An'anaviy tahlil usullari ko'pincha murakkab ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarning barcha jihatlarini to'liq aks ettira olmaydi. Shu sababli zamonaviy ekonometrik usullarni qo'llash orqali omillar o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlash, ularning ta'sir darajasini baholash hamda ilmiy asoslangan prognoz modellarini ishlab chiqish zarur hisoblanadi.

Ekonometrik tahlil iqtisodiy hodisalar o'rtasidagi funksional va statistik bog'liqliklarni aniqlash imkonini beruvchi samarali vosita bo'lib, u orqali oziq-ovqat xavfsizligiga ta'sir etuvchi asosiy omillarni aniqlash, ularning ahamiyat darajasini baholash va rivojlanish istiqbollarni prognozlash mumkin. Ayniqsa, ko'p omilli regressiya modellaridan foydalanish orqali turli iqtisodiy ko'rsatkichlarning natijaviy omilga ta'siri kompleks tarzda o'rganiladi va boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun ilmiy asos yaratiladi.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash masalasi zamonaviy iqtisodiyotda muhim ilmiy va amaliy yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Ushbu muammoni o'rganishda turli nazariy yondashuvlar va metodologik qarashlar shakllangan bo'lib, ular asosan iqtisodiy o'sish, agrar sektor rivoji va ijtimoiy barqarorlik bilan uzviy bog'liq holda tadqiq etiladi.

Iqtisodiy-statistik va ekonometrik yondashuvlar orqali oziq-ovqat xavfsizligini baholash masalalari ko'plab olimlar tomonidan chuqur o'rganilgan. Xususan, Abdullayev Y. tomonidan ishlab chiqilgan statistik tahlil nazariyasi iqtisodiy hodisalarni o'rganishda asosiy metodologik poydevor hisoblanadi [1]. Mazkur yondashuv ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni miqdoriy baholash va ularning dinamikasini aniqlashda muhim ahamiyatga ega.

Shuningdek, Abdullayev A.M., G'ulomov S.S., Abdullayev U.O. va Ishnazarov A.I. tomonidan ishlab chiqilgan ekonometrik modellar iqtisodiy jarayonlarni prognozlashda keng qo'llanilmoqda [2]. Ularning ilmiy ishlarida korrelyatsion-regression tahlil asosida ko'p omilli modellar tuzish, omillar o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlash hamda iqtisodiy ko'rsatkichlarning istiqboldagi o'zgarishlarini bashorat qilish usullari taklif etilgan.

Xorijiy olimlardan Magnus Ya.R., Ivanova M.A. hamda Sigel A.F. iqtisodiy jarayonlarni matematik-statistik usullar asosida tahlil qilishning nazariy va amaliy asoslarini ishlab chiqqan [3, 4, 5, 6]. Ularning tadqiqotlarida ekonometrika iqtisodiy hodisalar o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlash, modellar va prognozlashning samarali vositasi sifatida qaraladi. Ayniqsa, regressiya tahlili orqali natijaviy ko'rsatkichlarga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash va ularning ta'sir darajasini baholash metodikasi keng yoritilgan [7].

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda O'zbekistonda oziq-ovqat xavfsizligini baholash va prognozlash maqsadida ekonometrik usullar qo'llanildi. Tadqiqotning axborot bazasini milliy statistika ma'lumotlari tashkil etib, ular asosida vaqt qatorlari shakllantirildi.

Natijaviy ko'rsatkich sifatida aholi jon boshiga to'g'ri keladigan oziq-ovqat mahsulotlari miqdori tanlanib, unga ta'sir etuvchi omillar tizimi shakllantirildi. Dastlab korrelyatsion tahlil orqali omillar o'rtasidagi bog'liqlik baholandi va ahamiyatsiz hamda multikollinearlik mavjud omillar modeldan chiqarildi.

Keyingi bosqichda ko'p omilli regressiya modeli eng kichik kvadratlar usuli (OLS) asosida qurildi. Hisob-kitoblar SPSS dasturida amalga oshirilib, modelning ishonchliligi  $R^2$ , F va t mezonlari hamda Darbin-Uotson statistikasi yordamida baholandi.

Yakuniy bosqichda vaqt qatorlari asosida trend va prognozlash modellari ishlab chiqilib, 2030-yilgacha bo'lgan ko'rsatkichlar hisoblab chiqildi.

Tadqiqotda natijaviy ko'rsatkich sifatida aholi jon boshiga to'g'ri keladigan oziq-ovqat mahsulotlari miqdori (Y) tanlandi. Ushbu ko'rsatkichga ta'sir etuvchi omillar tizimi shakllantirildi (1-jadval).

### 1-jadval

#### O'zbekistonda oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashga ta'sir etuvchi omillar [8]

Omillar	Belgi
Doimiy aholi soni (ming kishi)	X1
Jami oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmining o'sish dinamikasi (%)	X2

Qishloq xo'jaligida asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar (mlrd. so'm)	X3
Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish tarkibida oziq-ovqat sanoati mahsulotlari ishlab chiqarishining ulushi (%)	X4
Iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmi tarkibida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishining ulushi (%)	X <sub>5</sub>
Qishloq xo'jaligi ekin maydonlarida texnika ekin maydonlari (paxta yetishtirish) hajmining qisqarishi (%)	X6
Oziq-ovqat sanoatida band bo'lgan xodimlarning o'rtacha soni (ming kishi)	X <sub>7</sub>
Qishloq xo'jaligi ekinlari ichida don mahsulotlari hosildorligi (gektardan tsentner)	X <sub>8</sub>
Go'sht va go'sht mahsulotlari ishlab chiqarish (ming tonna)	X <sub>9</sub>
Sut va sut mahsulotlari ishlab chiqarish (ming tonna)	X10

Tahlil jarayonida dastlab omillar o'rtasidagi bog'liqlik darajasini aniqlash maqsadida korrelyatsion tahlil amalga oshirildi. Bu usul yordamida juft korrelyatsiya koeffitsiyentlari hisoblanib, natijaviy omil bilan kuchsiz bog'langan yoki o'zaro yuqori darajada bog'liq (multikollinearlik mavjud) omillar aniqlanib, modeldan chiqarib tashlandi.

Shunday qilib, mazkur metodologiya oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash jarayonini kompleks baholash, asosiy omillarni aniqlash va ularning kelgusidagi rivojlanish tendensiyalarini ilmiy asosda prognozlash imkonini beradi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqot doirasida O'zbekistonda oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashga ta'sir etuvchi omillar korrelyatsion-regression tahlil asosida baholandi hamda ko'p omilli ekonometrik model shakllantirildi. Olingan natijalar iqtisodiy jarayonlar o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlash va istiqbol ko'rsatkichlarini baholash imkonini berdi.

Dastlab, natijaviy ko'rsatkich — aholi jon boshiga to'g'ri keladigan oziq-ovqat mahsulotlari miqdori (Y) bilan ta'sir etuvchi omillar o'rtasidagi bog'liqlik darajasi korrelyatsion tahlil orqali aniqlandi. Hisoblash natijalari shuni ko'rsatdiki, Y ko'rsatkichi bilan ayrim omillar o'rtasida yuqori darajadagi ijobiy bog'liqlik mavjud. Jumladan, sut mahsulotlari ishlab chiqarish (X10) bilan korrelyatsiya koeffitsiyenti 0,97, go'sht mahsulotlari ishlab chiqarish (X9) bilan 0,94 va oziq-ovqat sanoati ulushi (X4) bilan 0,92 ni tashkil etadi. Bu natijalar mazkur omillarning oziq-ovqat xavfsizligiga bevosita va sezilarli ta'sir ko'rsatishini tasdiqlaydi.

Korrelyatsion tahlil asosida modelga kiritiladigan omillar saralab olindi va multikollinearlik muammosi mavjud emasligi aniqlandi. Natijada, ko'p omilli regressiya modeli quyidagi ko'rinishda shakllantirildi:

$$Y = -7150,664 - 0,017X_1 + 1,505X_2 + 9,915X_4 + 14,412X_5 - 9,904X_6 + 105,857X_7 - 2,371X_8 - 4,312X_9 + 3,66X_{10}$$

Mazkur model natijalariga ko'ra, determinatsiya koeffitsiyenti  $R^2 = 0,996$  ga teng bo'lib, bu natijaviy ko'rsatkichning 99,6 foizi tanlangan omillar orqali izohlanishini bildiradi. Demak, model yuqori darajada ishonchli va statistik jihatdan ahamiyatli hisoblanadi.

Regressiya koeffitsiyentlari tahlili shuni ko'rsatadiki, oziq-ovqat xavfsizligiga eng kuchli ta'sir ko'rsatuvchi omillar quyidagilardan iborat:

- oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi (X2);
- oziq-ovqat sanoati ulushi (X4, X5);
- bandlik darajasi (X7);
- chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarish (X9, X10).

Xususan, X5 omil (iste'mol tovarlari tarkibida oziq-ovqat ulushi) 1 foizga oshganda natijaviy ko'rsatkich 14,412 foizga ortishi aniqlangan. X7 omil (bandlik) esa eng katta ta'sirga ega bo'lib, uning ortishi natijaviy ko'rsatkichni sezilarli darajada oshiradi.

Modelning statistik ahamiyatligi Fisher mezonini orqali tekshirildi. Hisoblangan qiymat  $F = 216,806$  bo'lib, jadval qiymatidan sezilarli darajada yuqori ekanligi modelning ishonchligini tasdiqlaydi. Shuningdek, Darbin-Uotson statistikasi 2,25 ga teng bo'lib, qoldiqlarda avtokorrelyatsiya mavjud emasligini ko'rsatadi.

Tadqiqot natijalarining muhim qismi sifatida istiqbol ko'rsatkichlari ishlab chiqildi. Trend modellari asosida hisob-kitoblarga ko'ra, 2030-yilga kelib aholi jon boshiga to'g'ri keladigan oziq-ovqat mahsulotlari miqdori 1205 birlikka yetishi prognoz qilinmoqda. Bu esa 2018-yilga nisbatan qariyb 2,9 barobar o'sishni anglatadi.

Shuningdek, prognoz natijalari quyidagi tendensiyalarni ko'rsatdi:

- oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi barqaror o'sadi;



- chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarish 2–2,5 barobar ortadi;
- don, sabzavot va meva yetishtirish hajmi sezilarli darajada oshadi;
- paxta maydonlari qisqarishi hisobiga oziq-ovqat ekinlari kengayadi.

Ekin maydonlarining optimallashtirilishi va zamonaviy agrotexnologiyalarning joriy etilishi natijasida 2020-yilda boshqoqli don yetishtirishni 16,4 foizga oshirib, uning hajmini 8 million 500 ming tonnaga yetkazish, kartoshka yetishtirishni 35 foizga, sabzavotni 30 foizga, meva va uzumni 21,5 foizga, go'sht yetishtirishni 26,2 foizga, sutni 47,3 foizga, tuxumni 74,5 foizga ko'paytirish, baliq yetishtirishni 2,5 martaga oshirish ko'zda tutilmoqda.

Respublikamizda qishloq xo'jaligi oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmining o'sish dinamikasiga e'tibor qaratsak, 2030-yilga kelib intensiv rivojlanish natijasida don yetishtirish (1,4 marta), meva (2,2 marta), uzum (2,1 marta), sabzavot (2,4 marta), kartoshka (192,5 %), poliz ekinlari (2,7 martaga) oshishi va paxta xomashyosining 4,8 %ga kamayishi kutilmoqda (5.1.3-jadval). Shuningdek, istiqboldagi yillarda go'sht (tirik vaznda) 2,5 martaga, sut ishlab chiqarish 2,2 martaga, tuxum ishlab chiqarish 2,7 martaga oshishi prognoz qilinmoqda (2-jadval).

## 2-jadval

O'zbekiston Respublikasi aholi jon boshiga to'g'ri keladigan oziq-ovqat mahsulotlari miqdoriga ta'sir etuvchi omillarning 2020-2030-yillardagi istiqbol ko'rsatkichlari [8]

T	Y	X <sub>1</sub>	X <sub>2</sub>	X <sub>3</sub>	X <sub>4</sub>	X <sub>6</sub>	X <sub>7</sub>	X <sub>8</sub>
2019	695.0111	33413.68	106.5144	290.3301	22.27516	36.15294	68.38628	49.08301
2020	741.3778	33909	106.1399	296.9134	23.05968	35.87255	68.50939	49.85607
2021	787.7444	34404.32	105.7654	303.4966	23.8442	35.59216	68.63251	50.62914
2022	834.1111	34899.64	105.3908	310.0799	24.62872	35.31176	68.75562	51.4022
2023	880.4778	35394.95	105.0163	316.6632	25.41324	35.03137	68.87874	52.17527
2024	926.8444	35890.27	104.6418	323.2465	26.19776	34.75098	69.00185	52.94833
2025	973.2111	36385.59	104.2673	329.8297	26.98228	34.47059	69.12498	53.7214
2026	1019.578	36880.91	103.8928	336.413	27.7668	34.1902	69.24809	54.49446
2027	1065.944	37376.22	103.5183	342.9963	28.55132	33.90981	69.37121	55.26753
2028	1112.311	37871.54	103.1438	349.5796	29.33584	33.62941	69.49432	56.04059
2029	1158.678	38366.86	102.7693	356.1629	30.12037	33.34902	69.61744	56.81366
2030								

Umuman olganda, olib borilgan ekonometrik tahlil oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashda ishlab chiqarish hajmi, sanoat ulushi va chorvachilik mahsulotlari hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanligini ilmiy asosda isbotlab berdi.

Olingan natijalar oziq-ovqat xavfsizligi darajasi ishlab chiqarish hajmi, chorvachilik rivoji hamda bandlik ko'rsatkichlari bilan bevosita bog'liqligini ko'rsatdi. Modelning yuqori aniqligi ( $R^2 = 0,996$ ) natijalarning ishonchligini tasdiqlab, ekonometrik tahlil asosida olingan xulosalarning amaliy ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatadi.

Tahlillar natijasida ekin maydonlarini optimallashtirish, xususan, paxta maydonlarini qisqartirish hisobiga oziq-ovqat mahsulotlari yetishtirish hajmini oshirish imkoniyati mavjudligi aniqlandi. Bu esa agrar siyosatda diversifikatsiyani kuchaytirish zarurligini ko'rsatadi.

Shuningdek, oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashda investitsiyalarni oshirish, qayta ishlash sanoatini rivojlantirish hamda bandlikni kengaytirish muhim yo'nalishlar sifatida e'tirof etildi. Mazkur natijalar boshqa ilmiy tadqiqotlar xulosalari bilan ham mos keladi va iqtisodiy mexanizmlarni takomillashtirish zarurligini asoslaydi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Tahlillar shuni ko'rsatdiki, oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashda ishlab chiqarish hajmi, oziq-ovqat sanoati ulushi, bandlik darajasi hamda chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarish asosiy determinantlar hisoblanadi. Ayniqsa, sut va go'sht mahsulotlari ishlab chiqarishning o'sishi aholi jon boshiga to'g'ri keladigan oziq-ovqat mahsulotlari miqdoriga sezilarli ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Ishlab chiqilgan prognoz natijalariga ko'ra, 2030-yilga borib aholi jon boshiga to'g'ri keladigan oziq-ovqat mahsulotlari miqdori sezilarli darajada oshishi kutilmoqda. Bu esa mamlakatda olib borilayotgan agrar islohotlar,



ishlab chiqarishni diversifikatsiyalash va oziq-ovqat sanoatini rivojlantirish siyosatining samaradorligini tasdiqlaydi.

Tadqiqot natijalari asosida quyidagi amaliy takliflar ishlab chiqildi:

- oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishni kengaytirish va diversifikatsiyalash;
- chorvachilik va qayta ishlash sanoatini ustuvor rivojlantirish;
- qishloq xo'jaligiga investitsiyalar hajmini oshirish;
- zamonaviy agrotexnologiyalarni joriy etish va hosildorlikni oshirish;
- oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashda ekonometrik prognozlash usullaridan keng foydalanish.

Umuman olganda, ishlab chiqilgan ekonometrik model oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash bo'yicha strategik qarorlar qabul qilishda muhim ilmiy asos bo'lib xizmat qiladi va ushbu yo'nalishda kelgusidagi tadqiqotlar uchun metodologik baza vazifasini bajaradi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Abdullayev Y. Statistikaning umumiy nazariyasi. – Toshkent: "Fan" nashriyoti, 1993. – 240 b.
2. Abdullayev A.M., G'ulomov S.S., Abdullayev U.O., Ishnazarov A.I. Ekonomiko-matematik usullar va prognozlashning amaliy modellari. – Toshkent: "O'qituvchi", 2006. – 650 b.
3. Magnus Ya.R., Katyshev P.K., Peresetskiy A.A. Ekonometrika: darslik. – Moskva, 2005. – 499 b.
4. Иванова М.А. Экономическая статистика: учебник. – Москва: "ИНФРА-М", 2000. – 210 б.
5. Siegel A.F. Practical Business Statistics. 4th edition. – New York: McGraw-Hill, 2002. – 450 p.
6. Элисеева И.И. Эконометрика: учебник. – Москва: "Финансы и статистика", 2003. – 344 б.
7. Asteriou D., Hall S.G. Applied Econometrics: A Modern Approach Using EViews and Microfit. – New York: Palgrave Macmillan, 2007. – 397 p.
8. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi. Rasmiy statistik ma'lumotlar to'plami (2018–2024-yillar). – Toshkent, 2024.

# **muhandislik** **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,  
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Zokir Alibekov

**Sahifalovchi va dizayner:** Abdurahmon Qurbonov

---

**2026. № 4**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan  
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi  
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan  
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.  
**Litsenziya raqami: №095310.**

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod  
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



[t.me/yait\\_2100](https://t.me/yait_2100)